

INKLYUZIV TA’LIMNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Sheranova Maryam Bazarbaevna
A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika
universiteti pedagogika kafedrası (PhD) dotsenti
Yunusova Nigora
Pedagogika-psixologiya va inkluziv
ta’lim fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456898>

Annotatsiya: ushbu maqolada inkluziv ta’limning mazmuni, mohiyati hamda uning ta’lim tizimidagi o‘rni yoritib berilgan. Inkluziv ta’limning asosiy tamoyillari, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim jarayoniga jalb etishning ahamiyati, shuningdek ularning jamiyatga moslashuvi va rivojlanishida inkluziv ta’limning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, inkluziv ta’limni samarali tashkil etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va o‘qituvchilarning vazifalari haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: inkluziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ta’lim jarayoni, integratsiya, pedagogik yondashuv, teng imkoniyat, ijtimoiy moslashuv, ta’lim tizimi.

Аннотация: в данной статье раскрываются содержание и сущность инклюзивного образования, а также его роль в системе образования. Анализируются основные принципы инклюзивного образования, значение вовлечения детей с ограниченными возможностями в общеобразовательный процесс, а также роль инклюзивного образования в их социальной адаптации и развитии. Кроме того, рассматриваются необходимые педагогические условия для эффективной организации инклюзивного образования и задачи педагогов.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, образовательный процесс, интеграция, педагогический подход, равные возможности, социальная адаптация, система образования.

Annotation: this article discusses the content and essence of inclusive education as well as its role in the education system. It analyzes the main principles of inclusive education, the importance of involving children with disabilities in the general education process, and the role of inclusive education in their social adaptation and development. In addition, the necessary pedagogical conditions for the effective organization of inclusive education and the responsibilities of teachers are also considered.

Keywords: inclusive education, children with disabilities, educational process, integration, pedagogical approach, equal opportunities, social adaptation, education system.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Inkluziv ta’limning maqsadi va vazifalari:

— alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inkluziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

— o’quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;

— inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi.

«Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas. Unga hurmat bilan munosabatda bo’lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim». Mariya Sibulskaya shunday fikrlarni bildiradi.

Inklyuzivlik-inglizcha so’z bo’lib, inklusif- qo’shish, birlashtirish ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo’lgan o’quvchilarni umumta’lim maktablarida sog’lom bolalar bilan qo’shib birgalikda o’qitish jarayonini ifodalaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo’lib ulg’ayishi, hech kimdan kam bo’lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo’lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog’isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo’lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlashborasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi.

O’sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo’lgan oilani mustaqil, hech kimga qaram bo’lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir. Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo’lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo’lgan bolalar bo’yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o’rganish bo’yicha tadqiqotlar olib borildi

Inklyuziv ta’lim – o’quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o’zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir. Shuningdek, inklyuziv ta’lim davlat siyosati bo’lib, nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o’quvchilarni sog’lom o’quvchilar bilan birgalikda o’qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qatormuhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan:

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog’liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o’ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakligi prinsipi;
- shaxsga yo’naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o’quvchining o’z tengdoshlarining qo’llab-quvvatlovi va do’stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi turli-tumanlik o’quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u barcha bolalarga teng ta’lim olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, ularni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish, ularning bilim olish, ijtimoiylashuv va shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berishdan iboratdir. Bunday yondashuv bolalarning o‘z tengdoshlari bilan bir muhitda o‘qishi, muloqot qilishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, pedagogik yondashuvi va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishi, maxsus metod va usullardan foydalanishi zarur. Shuningdek, ta’lim muassasalarida zarur moddiy-texnik baza, didaktik vositalar va qulay pedagogik muhit yaratilishi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning hamkorligi ham inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim orqali nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha o‘quvchilar bag‘rikenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘rganadilar. Shu sababli inklyuziv ta’limni rivojlantirish va takomillashtirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori – “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. F.U.Qodirova. D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022
3. D.S. Qahhorova. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. Toshkent. 2022.
4. Xamidova M., Po‘latova D. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Po‘latova D., Mamatqulova Z. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.